

KONSTITUTSIYA - BAXTIMIZ QOMUSI, HUQUQ VA ERKINLIKLARIMIZ HIMOYACHISI

Inomjonov Zaxiriddin Zafarjon o‘g‘li

AndQXAI, “Qishloq xo‘jaligi huquqi va agroturizm” kafedrası assistenti.

inomjonovzaxiriddin@gmail.com

Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich

AndQXAI, Yurisprudensiya ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

sanjarisomiddinov147@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-3935-3639

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgarishlar, uning inson qadri hamda fuqarolarning huquq va erkinliklariga ta’siri, shuningdek, jamiyat hayotida tutgan o‘rni, davlatda qonunlarning ustun bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *suveren, huquq, qonun, inkluziv, demokratiya, sud, advokatura, adolat.*

THE CONSTITUTION IS THE PUBLIC OF OUR HAPPINESS, THE PROTECTOR OF OUR RIGHTS AND FREEDOMS

ABSTRACT

This article discusses the changes made to our new Constitution, its impact on human dignity and the rights and freedoms of citizens, as well as its role in the life of society, the supremacy of laws in the state.

Key words: *sovereign, right, law, inclusive, democracy, court, bar, justice.*

KIRISH. Davlat va jamiyat hayotining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati vazifasini o'tovchi Konstitutsiya -nafaqat davlatning muhim ramzi, balki har bir inson, jamiyat hamda xalqlarning huquqiy timsoli hamdir. O'zbekiston Respublikasi ham o'zining tarixiy o'tmishini kuzatib, o'z kelajagini o'ylagan holda Konstitutsiyamizga bir qator o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritdi. E'tiborli jihati shundaki Konstitutsiya oliy vakillik organi Oliy Majlis tomonidan emas balki, xalqning xohish irodasiga bog'liq tarzda referendum orqali qabul qilindi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan konstitutsiyamizdan farqli ravishda normalar soni ortdi hamda konstitutsiyamiz 65% ga yangilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada eng e'tiborga molik jihatlardan biri, bu 1-moddada aks etgan bo'lib unga ko'ra "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" [1].

Bu moddadan ko'rinib turibdiki, davlatimiz suveren davlat hisoblanib ichki va tashqi siyosatni o'zi mustaqil ravishda amalga oshiradi. Shuningdek, davlatda demokratik huquq va erkinliklar ustuvor hisoblanadi. Ushbu norma Konstitutsiyaning 155-moddasi orqali 1-modda qayta ko'rib chiqish mumkin emasligi tog'risidagi qoida bilan mustahkamlab qo'yildi. Hamda davlat doimiy ravishda demokratik, huquqiy va suveren davlat bo'ladi - deb e'tirof etildi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida ushbu qoida mustahkamlangan bo'lib, masalan, Fransiyada respublika boshqaruv shakli, Germaniyada davlatning federativ tuzilishi, Braziliyada hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi o'zgartirilishi mumkin emas, shuningdek, Rossiya Konstitutsiyasining 1, 2 va 9- boblari o'zgartirilishi mumkin emas [2].

Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, qiyosiy tahlil, og'zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJARLAR. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish jarayonida shuni alohida ta'kidlash kerakki O'qitishning inkluziv ta'lim tizimi alohida modda sifatida

bayon qilindi. Bu orqali o‘quvchilar ta’lim dargohiga borish imkoniga ega bo‘lmasalar masofaviy o‘qitish tizimi orqali dars berish bu bilan yoshlarga zamonaviy bilim berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Bugun bitta kitob o‘qigan bola, ertaga televizor ko‘rib o‘tirgan o‘nta bolani boshqarishi mumkin”.

Dunyodagi har bir rivojlangan davlatning ortida uning qonuni, huquq va erkinliklari turadi. Davlatda qabul qilingan barcha qonun va normativ-huquqiy hujjatlar bosh qomusga amal qilingan holatda qabul qilinadi. Buyuk davlat arbobi yengilmas sarkarda Amir Temur “kuch-adolatda” deb bejiz aytmagan. Xo‘sh adolat qayerda biz uni qanday qo‘llashimiz mumkin. Konstitutsiyamizning 15-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi” - deb belgilab qo‘yilgan. “Amaldagi qonun hujjatlarning hech biri Konstitutsiya normalariga zid kelishi mumkin emas” - ushbu normalar orqali adolatni tushunishimiz mumkin.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o‘qituvchining huquqiy maqomiga ham alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi”. “Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi” - deb belgilab qo‘yilgan. Bu orqali o‘qituvchilar huquqlarini konstitutsion darajaga olib chiqishga erishildi. O‘qituvchilarni himoya qilish konstitutsiya orqali amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini himoya qiluvchilar bo‘lib bular advokatlar hisoblanadi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning o‘ziga xosligi ushbu norma alohida bob sifatida kiritildi. Konstitutsiyamizning XXIV bobi advokaturaga atalgan bo‘lib u 141-142 moddalarni o‘z ichiga oladi. Konstitutsiya normalariga ko‘ra: “Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali

yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi.

Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.”

MUHOKAMA. Qonunga ko'ra fuqarolar sudga davo qo'zgatish yoki boshqa hollarda murojaat qilishlari mumkin. Fuqarolarning vakili sifatida advokatlar ishtirok etadilar. O'zbekiston Respublikasida sud adolatli tarzda yo'lga qo'yiladi. Bu qonunlarimiz orqali mustahkamlab qo'yilgan. Qonunga ko'ra, “Fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudga ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli.” Ushbu qoida konstitutsiyamizning 133-moddasida o'z ifodasini topgan. Bundan shuni anglash mumkinki O'zbekiston fuqarolari buzilgan huquqlarini qayta tiklash maqsadida nafaqat Oliy sudga, balki Konstitutsiyaviy sudga ham murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Hokimiyatning bo'linish prinsipi bu davlatning vakolatli yuqori organlarining bir birini tiyib, teng ishlashini muvofiqlashtirish maqsadida ta'minlangan. Davlatda hokimiyatning bo'linish prinsipidan foydalanish to'g'risida ko'plab fikrlar bo'lib, Sharl lui Monteskyu shunday deydi.: “Agar sud hokimiyati ijro hokimiyati bilan birlashsa u holda sud hakami sitamgarga aylanishiga imkoniyat tug'iladi”[3]. Bu so'zdan shuni tushuning mumkinki bir davlat organida ishlovchi xodim boshqa organida ham ishlasa, bu bir birini tiyib turish tamoyilining buzilishi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Siyosiy erkinlik xohlagancha ish tutish degani emas. Erkinlik qonun yo'l qo'ygan har qanday ishni bajarish huquqi bilan belgilanadi agar fuqaro qonunda taqiqlangan ishga qo'l ursa, erkinlikdan mahrum bo'ladi. Xo'sh, shunday ekan fuqarolar o'z erkinliklarini qanday bilib oladilar. Quyidagilarni amalga oshirish orqali fuqarolar o'z huquqlari haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar hamda

Konstitutsiyadagi normalarni hayotga tezkorlikda hamda izchil ravishda tadbqiq etishga erishish mumkin bo‘ladi:

- Konstitutsiya normalarini fuqarolar gavjum joylarga afisha tartibida yoki ro‘yxat tartibida joylashtirish bu orqali fuqarolarnig o‘z huquqlarini bilishga erishish;
- radio hamda televideniyalarda turli xil reklamalarnig o‘rniga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan iqtiboslar keltirish;
- fuqarolarning davlat organlariga onlayn murojaatini yanada soddalashtirish maqsadida bitta aqlli platforma yaratilib, savollar qaysi organga kelib tushgan bo‘lsa tezkorlikda javob qaytarish bunda fuqaro qaysi sayt orqali murojaat qilishini o‘ylab o‘tirmasdan, shu platforma orqali murojat yo‘llab qo‘ya qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Adolat. T.: 2023-yil, 4-bet.
2. Z.SH.Zokirov, “Dunyo mamlakatlarining qonun hujjatlari”. Booknomy print. Toshkent: 2022-yil.
3. [www.https://Ziyouz.com](https://Ziyouz.com) – 24.10.2013-yil